

BUXORO AMIRLIGIDA HARBİY BOSHQARUV VA QO'SHIN TA'MINOTI

*Toirov Azamatxo'ja Axtam o'g'li
Buxoro Davlat universiteti Tarix
(mamlakatlar va yo'nalishlar) yo'nalishi talabasi.*

Annotatsiya. Buxoro amirligining harbiy boshqaruv tizimi birinchi bor kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Harbiy unvonlar ierarxiyasi, harbiy boshqaruv idoralari, harbiy rahbarlarning siyosiy tizimdagagi o'rni aniq tarixiy dalillar asosida yoritildi. O'zbekiston tarixshunosligida harbiy boshqaruvga doir ilmiy qarashlarni boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, tarixiy tajribani zamonaviy boshqaruv tizimlarida inobatga olish, o'quv darsliklar va maxsus kurslar uchun ilmiy asos yaratadi.

Kalit so'zlar: Qo'shin boshqaruvi, harbiy qo'shin ta'minoti, quroq-aslaha, harbiy holat.

Kirish. Buxoro – O'zbekistonning qadimiy va boy tarixga ega bo'lgan madaniy markazlaridan biri bo'lib, uning siyosiy, ijtimoiy, harbiy va ma'muriy hayoti tarixshunoslik fanida alohida o'rganilishi lozim bo'lgan muhim yo'nalishlardan biridir. Ayniqsa, Mang'itlar sulolasiga davrida shakllangan Buxoro amirligining harbiy boshqaruv tizimi o'zining murakkab tuzilmasi, unvonlar ierarxiyasi va davlat mudofaa siyosatidagi o'rni bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi natijasida milliy tarixni chuqur va tizimli yondashuv asosida qayta o'rganish, tarixiy davlatlar tajribasini ilmiy asosda tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari alohida ahamiyat kasb etadi: "O'z tarixini bilmaydigan millatning kelajagi yo'q. Biz avlodlarimizni o'z tarixini chuqur biladigan, uni g'urur va iftixon bilan ardoqlaydigan qilib tarbiyalashimiz kerak"¹.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bu borada dastlabki umumiyligi tarixiy ma'lumotlar J.Shodiyev tomonidan yozilgan "Buxoro amirligi davlatchiliginining rivojlanishi" (2010) nomli o'quv qo'llanmada keltirilgan. Abdurahimova N.A., Isakova M.S., Suleymanova Z.M.ning "Davlat muassasalari tarixi" (2007) asarida davlat boshqaruvi tizimiga doir umumiyligi ma'lumotlar berilgan. Otamurotova R. tomonidan yozilgan magistrlik dissertatsiyasi (Otamurotova R. *Buxoro amirligidagi harbiy mansab, unvon egalari va ularning vazifalari*. Magistrlik dissertatsiyasi. Urganch: Al-Xorazmiy nomidagi Urganch Davlat Universiteti, 2015.)da harbiy mansab va unvonlar tahlil qilingan bo'lsa-da, ular faoliyat yuritgan tizimning batafsil

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 19-mart kuni Buxoro viloyatiga tashrifi chog'ida aytgan nutqidan. Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti – www.prezident.uz

o‘rganilishi mavjud emas. M.Mamadaliyevning bakalavrlik ishi (Mamadaliyeva M. *Buxoro amirligining davlat muassasalari faoliyati*. Bakalavr bitiruv malakaviy ishi. Namangan: Namangan Davlat Universiteti, 2016.)da esa markaziy boshqaruv yoritilgan, biroq harbiy tizim yuzaki ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, L. Kostenko (Костенко Л.Ф. Средняя Азия и военная организация Бухарского ханства. – Ташкент: Издательство АН УзССР, 1955.), M.L’ko (*Военное дело в Бухаре в XIX веке*. – Москва: Военно-исторический сборник, 1960.) kabi xorijiy mualliflarning asarlarida qo‘shinlarning holati, unvonlar va harbiy tayyorgarlik darajasiga doir qimmatli kuzatishlar mavjud.

Qo‘shin maoshi. Buxoro amirligida qo‘shinlarning moddiy ta’minoti ularning egallagan o‘rniga qarab belgilangan. Qo‘shin ta’minoti pul yoki oziq-ovqat mahsulotlari orqali amalga oshirilgan. Masalan, Amir Nasrullo tomonidan joriy etilgan qo‘shin moddiy ta’minotiga ko‘ra, Buxoro amirligi qo‘shinlarining oliv amaldori - qo‘shining bosh qo‘mondoni daromadi yiliga 2000 tillani tashkil etgan bo‘lsa, yuzboshi oyiga 6 tilla, qorovulbegi 4,5 tilla, panjboshi 85 tanga, uning yordamchisi — panjboshi-xurd esa 50 tanga miqdorida maosh olgan². Manbalar tahlilining ko‘rsatishicha, Buxoro amirligida XIX asrning birinchi yarmida qo‘shin ta’minotida pul va oziq ovqat ta’minoti yo‘lga qo‘yilgan. Buxoroda sipohlar yoki ko‘ra olamon deb ataladigan nomuntazam qo‘shin askarlari yiliga 6 tilla maosh olganlar. Ularga pichan sotib olish uchun 1 tilla pul, shuningdek, 5 botmondan jo‘xori va bug‘doy berilgan. Bundan tashqari, harbiy harakatlar davrida mansabidan qat’i nazar, har kuni harbiylarning barchasiga amir xazinasidan 1tilladan ustama puli berib borilgan³. Harbiy harakatlar davrida yarador bo‘lgan sipohiylargacha ham amirning farmoyishi asosida alohida mablag‘ ajratilgan bo‘lib, bu pullar evaziga askar tabiblarga murojaat etishi mumkin bo‘lgan⁴. Lekin qo‘shining maoshi miqdori boshqa soha vakillarinikiga nisbatan kamroq bo‘lgan. Bu holatni jadid allomasi Fitrat shunday tavsiflaydi: “... sarbozlar oyiga 20 tanga maosh olgan. Sarboz bo‘lmagan kezlarda, ya’ni hammollik qilsa kuniga 5 tilla ishlab olgan, shunda bir oylik daromadi 150 tillani tashkil qilgan. Ba’zida jinoyatchilar jazo chorasi tariqasida sarbozlikka yuborilgan”⁵. Harbiy yurishlarning boshlanishi va e’lon qilinishi bilan askarlar o‘zlarini uchun ijaraga ot olar edilar. Bunday qo‘shinda harbiy intizomga har doim ham rivoja qilinavermas edi. **Qo‘shin ta’minoti.** Manbalarda oziq-ovqati tugagan va oti o‘lgan askarlarning qo‘shinni tark etib, ketib qolishi hollari ko‘p uchrashi qayd etib o‘tiladi. XIX asr muallifi Buxorodagi qo‘shining ahvoli hakida yozar ekan, “Olomon juda kam hollardagina o‘z otiga egadir... Harbiy yurishning boshlanishi haqidagi buyrukni

² Zamonov A. XVIII - XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligida harbiy boshqaruv va qo‘shin tuzilishi // O‘zbekiston tarixi.- 2014.- №1.- B. 20.

³ Ziyayeva D. O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan (qadimgi davrdan hozirgacha).- T.: Sharq, 2012. - B.133.

⁴ Mirza Salimbek. Tarixi Salimiyy. T.: Akademiya, 2009.-B. 121-129.

⁵ Fitrat Abdurauf. Hind sayyohi bayonoti // Saylanma. T.: Tamaddun, 2011.- B. 115.

olganlaridan keyin ular harbiy yurishlar uchun otni ijaraga oladilar”, - deb yozar ekan, bunday yurishlarda katiashgan askarlar oziq-ovqat zaxirasining tugab qolishi oqibatida tezda tarqab ketishini ham ko‘rsatib o‘tadi. Uzoq davom etgan yurishlar vaqtida esa oziq-ovqati tugagan, o‘zi ham, oti ham holdan toygan askarlar egar-jabdug‘i, kiyimboshi, kurol-aslahasini non va oti uchun yemga almashtirish hollari ham sodir bo‘lib turgan. Askarlarning oziq-ovqati zaxirasi tugab, uyiga ketib qolish hollari jangning eng qizg‘in pallasida ham sodir bo‘lishi mumkin edi. Bu esa harbiy to‘qnashuvlarning muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlashiga olib kelar edi. Faqat ayrim hollardagina, askarlarning ba’zi birlariga xon tomonidan ot berilar edi. Xususan, askarga hadya etilgan ot jangda halok bo‘lsa, bu haqida unga maxsus yorlik berilib, imkon bo‘lganda o‘lgan ot uchun haq to‘lanar edi⁶. Bu davrda qo‘sish ta’mintoning ko‘rinishi Xiva va Qo‘qon xonliklarida ham Buxoro amirliginiki bilan deyarli bir xil bo‘lgan. Buxoro bilan yaqin munosabatda bo‘lgan boshqa davlatlarda — Eron, Hindiston va Usmonlilar davlatida qo‘sish tuzish nizomlari hamda uning ta’mnoti XVI—XVII asrlarda xalqlarimiz harbiy san’ati bilan hamohang tarzda rivojlangan bo‘lsa-da, Yevropa davlatlari bilan to‘qnashuvlarning yuzaga kelish zaruriyatlaridan kelib chiqib, O‘rta Osiyo xonliklarining harbiy tizimidan ildamlab ketgan edi. Yangi tashkil etilgan muntazam qo‘sish amirning mablag‘i evaziga har uch yilda doimiy harbiy kiyim bilan ta’minlab turilgan. Qo‘sish rahbarlaridan tortib, oddiy askarlarga xazinadan yangi kamzullar, shim va qalpoq berilgan. Harbiy kiyim taqsimoti bilan bog‘liq mazkur tadbirlarga bakovulboshi lavozimidagi shaxs mas’ul bo‘lgan⁷.

Foydalanilgan qurol-aslahalar. Amirlikning dastlabki yillarida askarlarning ko‘pchiligidagi o‘z qilichlari mavjud bo‘lgan bo‘lsada, XIX asr oxiri XX asr boshlarida tashkiletilgan yangi “Shefskiy”, “Terskiy”, “Kuban” kazaklari otryadlari barcha qurollari bilan birga xanjar va qilichlar ham rus armiyasi namunasidek bo‘lgan. Qilich bilan birgalikda xanjar ham amirlik askarlarining an’anaviy quroli hisoblangan. XIX asr oxirlarida Buxoroda ishlab chiqarilgan pilta miltiqlar uchiga ham yevropa miltiqlari singari xanjarlar (shtik noj) ilib qo‘yilgan. Qadim zamonlardan beri janglarda qo‘llanib kelingan gurzi, oybolta va boshqa sovuq qurollar mang‘it hukmdorlari davrida jang quroli bilan birgalikda harbiy amaldorlarning ramzi sifatida ham ishlatilgan. Rossiya imperiyasi vassaliga aylangan Buxoro amirligida ko‘plab “assoi safari”, “assoi jihodi” deb nom olgan qurollar ishlab chiqarilganki, ular ham hassa, ham qilich vazifasini bajargan va undagi hassa g‘ilofida aslida qilich bo‘lib, mavhum tarzda joylashtirilgan zumrad va kumushlar bilan bezab ishlanga. Bu tarzdagi qurollar, sovuq qurollar yasash san’atining yorqin namunasidir⁸.

⁶ Ziyayeva D. O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan (qadimgi davrdan hozirgacha).- T.: Sharq, 2012. - B.133.

⁷ Shukrullayev Y. Qo‘sish boshqaruvi tarixidan // Jamiyat va boshqaruv. Toshkent, 2006. № 2.-B. 48.

⁸ Shukrullayev Y. Buxoro amirligida qo‘sish va harbiy ish (1756-1920) .- Buxoro: Turon zamin ziyo, 2019. -B.114.

Xulosa. O‘zbek davlatchilik tarixiga nazar tashlasak, har qanday mamlakatning harbiy siyosiy qudrati bevosita uning iqtisodiy rivoji, salohiyati bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘ramiz. Biroq XVIII - XIX asrlarda xonliklar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar, mamlakatdagi ichki nizolar qoloqlik girdobini yanada chuqurlashtirdi. Ana shu bois mang‘itlar sulolasи hukmronligining dastlabki davri bilan amirlikning Rossiya imperiyasining vassaligi aylangan vaqtidagi qurol-yarog‘, armiyaning jangovarlik holati, ta’minoti masalasida qattiq o‘zgarishlar sezilmaydi. Bundan tashqari, Buxoro amirligidagi, qolaversa, barcha xonliklar harbiy-siyosiy holati to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlar rus savdogar, elchi, jesus, sayohatchi va boshqa qiyofasidagi kishilar tomonidan chor Rossiyasi hukumatiga XVII asr boshlaridan yetkazib bera boshlangan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2018-yil 19-mart kuni Buxoro viloyatiga tashrifi chog‘ida aytgan nutqidan. Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti – www.prezident.uz
2. Zamonov A. XVIII - XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligida harbiy boshqaruva va qo‘shin tuzilishi // O‘zbekiston tarixi.- 2014.- №1.- B. 20.
3. Ziyayeva D. O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan (qadimgi davrdan hozirgacha).- T.: Sharq, 2012.-B.133.
4. Mirza Salimbek. Tarixi Salimi. T.: Akademiya, 2009.-B. 121-129.
5. Fitrat Abdurauf. Hind sayyohi bayonoti // Saylanma. T.: Tamaddun, 2011.- B. 115.
6. Shukrullayev Y. Qo‘shin boshqaruvi tarixidan // Jamiyat va boshqaruvi. Toshkent, 2006. № 2.-B.48.
7. Shukrullayev Y. Buxoro amirligida qo‘shin va harbiy ish (1756-1920) .- Buxoro: Turon zamin ziyo, 2019. -B.114.